



**KINOOPERATOR-KINOREJISSOR XAMIDULLA XASANOV**

**IJODIY USLUBI MILLIY KINO KONTEKISTIDA**

**Xaitov Muhiddin Mo'minjon o'g'li**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Magistratura bo'limi "Kinooperatorlik"  
mutaxassisligi 2- bosqich magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** O'zbek kino o'zining tezkorligi, ta'sirchanligi, ommaviyligi bilan shuhrat qozondi. Insonni shaxs sifatida kamol toptirish, ijtimoiy muammo va qarama qarshiliklar ongni shakllantirish, jamiyat oldida inson mas'ulligini tarbiyalash filmning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, film kishini har tomonlama estetik tarbiyalashda kuchli qurol vositasi ekanligini qayd qilish kerak. Shunday ekan, bu dargohda ishlaydigan yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni yetkazish alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimiz rahbari, Ozbekiston kinoning ravnaqiga, uning texnik imkoniyatlariga, ijodiy xodimlar malakasiga e'tibor qaratib, farmon va qarorlar qabul qilyapti, ko'plab senaristlar, rejissyorlar, operatorlar, rassomlar, aktyorlar ijodi ham milliy mafkuraga uzviy bog'liqdir. Jamiyatda shakllanayotgan mafkura, kino operatorlar ijodida o'z ifodasini topishi kerak.

**Kalit so'zlar:** kino, kino san'ati, rejissor, rassom, operator, chiroqchi, ovoz rejissori

**Аннотация:** Узбекское кино прославилось своей динамичностью, выразительностью, массовостью. Совершенствование человека как личности, формирование сознания социальных проблем и противоречий, воспитание ответственности человека перед обществом стали одними из главных социальных задач фильма. В частности, следует отметить, что кино-мощное орудие в всестороннем эстетическом воспитании человека. Поэтому особое значение имеет подготовка высококвалифицированных кадров, специалистов, отвечающих современным требованиям. Глава нашей страны, Узбекистан, уделяя внимание развитию кино, его техническим возможностям, квалификации творческих работников, принимает указы и постановления, творчество многих сценаристов, режиссеров, операторов, художников, актеров также неразрывно связано с национальной идеологией. Идеология, формирующаяся в обществе, должна найти свое выражение в творчестве кинооператоров.

**Ключевые слова:** кино, киноискусство, режиссер, художник, оператор, осветитель, звукорежиссер.



Qadimdan insoniyat avlodlardan avlodlarga informatsiya yetkazib kelmoqda. Tarix davrlaridan odamzod atrof muxitni tasvirlash imkoniyatiga ega, asosan kundalik hayotida duch kelgan hayvonlarni tasvirlashgan. Tog' yon bag'rlarida, qoya toshlardagi tasvirlar bunga isbot bo'lishi mumkin. O'sha paytlardan inson ko'rgan, kuzatganlarini tasvirlash imkoniyati vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi 350-yilda grek faylasufi Aristotel quyoshli kunda qop qorong'u xona tuynugidan tushayotgan nurga e'tiborini qaratadi va sinovlar o'tkazadi. Deraza oldiga bir qancha buyumlar qo'yadi, buyumlarning devorda tasviri paydo bo'lishini ko'radi. Aristotelning bu kashfiyoti hozirgi kundagi butun olam kino industriyasi va fotografiya yaratilishiga katta sabachilardan bo'lishini, kinooperatorlik sohasini paydo bo'lishini tasavvur ham qilmagan edi. Yillar o'tgani sayin Film o'zining taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechira bordi. O'zbekiston Kinosiga ilk tamal toshi qo'yilgan kundan boshlab, to bugunga qadar juda katta ijodiy maktab va jamoalar shakllandi. Kino filmning har bir yo'nalishida ustoz-shogird an'anasi paydo bo'ldi va ular yillar mobaynida shakllanib bordi. O'zbek milliy kino san'ati ijodkorlarining mahorati g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekiston mustaqil davlat bo'lgach, O'zbekfilmda ham tub islohotlar boshlandi. Kino ijodkorlar xalqimizning boy tarixi, qadriyatleri, buyuk bobolarimiz yaratgan o'lmas meros haqida, ajdodlarimiz hayotini aks ettiruvchi badiiy asarlar asosida Hujjatli va Badiiy filmlar tayyorlashga kirishdi. Bu davrdako'plab hujjatli va badiiy filmlar "Ibn Sino", "Avloniy", "At Termiziy", "Ibrat", "Islom Ho'ja", "Amir Temur", kabi asarlar vujudga keldi. Bundan tashqari hozirgi zamon qahramonlari to'g'risida ham filmlar tasvirga olinmoqda. Aytgancha Qahramonimiz Xamidula Xasanov hozirgi kunlarda Pahlavon Mahmud badiiy filimini suratga olish bilan bandlar. Shu tariqa O'zbekkino yangi janrlar bilan boyib bordi. Moddiy-texnik bazasi ham mustahkamlana boshladi. Bu borada ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi.



Mustaqillik yillarida kino asar yaratish jarayonida O'zbekfilmdan tashqari nodavlat studiyalar tomonidan filmlar va seriallar ishlab chiqarish ommaga namoyish etish keng rivojlanib borayotgani kinorejissyorlar, kinossenaristlar, kinooperatorlar hamda montaj, ovoz rejissurasi kabi sof mutaxassislar faoliyati, ularning kasbiy mahoratlari keng jamoatchilikning diqqat markazida bo'ldi. Aksar vaqtlarda salbiy baholar olayotganida kino san'atining buguni va ertasi uchun jiddiy o'ylanishni, zarur yechimlarini topishni kun tartibidan masalaga aylantirib qo'ydi. Jumladan kinoning taqdirida ssenariynavis, rejissyor, operator ijodiy rejalarini ham ifoda qilish qudratiga ega bo'lib, shu uchlikning asosiy qismi hisoblangan. Kinooperatorlik ayniqsa, zamonaviy o'zbek filmning eng muhim jihati sifatida idrok etilmoqda.

Hozirgi paytda kino san'atini rivojlantirish sohasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayapti, buning uchun maxsus qarorlar e'lon qilindi. Kinooperatorlik sohasida ham jiddiy siljishlar bor. Ayniqsa, yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tashabbusi bilan qabul qilingan Harakatlar dasturi bo'lajak kino va televideniye sohasi xodimlari, shuningdek kinooperatorlarni o'qitish sohasida olib borilayotgan innovatsion ishlar bu sohani rivojlanishiga katta umidlar bog'lash imkonini beradi. Filmda kinooperator ancha ma'suliyatli ishlashga majbur, ayniqsa hujjatli filmda rejissorlik ishini ham bajarishi mumkin. Kinooperator biron bir filmni tasvirga tushurish vaqtida rejissyor bilan hamohang ishlaydi. Kinooperator filmni suratga olishni boshlashdan avval ssenariy keyin rejissyorni fikirlaridan habardor bo'lishi shart. Bundan tashqari dekorator bilan yaqindan ishlaganligi sababli o'z fikrini qog'ozda ham tasvirlay olishi kerak. Eng mukammal operator - tasviriy san'atdan habari bor operator. Unday operatorlar suratga olayotgan har bir detalini ko'zdan qochirmaydilar. Ozbekfilm o'z imkoniyatlarini tushungan xolda o'z bag'riga yetuk malakali kadrlarni jalb qila boshladi. O'zbekistonimizda O'zbekfilmning rivojiga xissa qo'sha oladigan, texnik



qobiliyatga ega mutaxassislar tayyorlab kelinmoqda. Ayniqsa texnika taraqqiydashib kelayotgan bir paytda ijodkorlar uchun sharoitlar kengaydi va san'at darajasiga ham ko'tarildi.

O'zbekfilmda rejissor, rassom, operator, chiroqchi, ovoz rejissori birlashib filmlar, seriallar tasvirga olishadi. Filmda operator shunday ijodiy jamoaning ijodini tomoshabinga mohirona tarzda yetkazib beruvchi ijodkordir. Operator o'z texnikasiga bo'lgan ma'suliyati va ekranga sifatli maxsulot yetkaza bera olishi-professionalligini ko'rsata oladigan asosiy yutuqlaridan biridir. Operator ishining birgina xatosi filmni tayyorlashda qatnashgan guruh a'zolari ishi va kamchiligini ko'rsatadi. Filmda plan, rakurs, mantaj, yorug'lik uzatuvchi va turli xil texnikalardan foydalaniladi. Kadr filmda asosiy yaratuvchilik vositasidir. Operator ishisiz ekranda tasvir ko'ra olmaymiz. Oldingi universal operatorlik mutaxassislari filmda ishlaganliklari sari yangidan yangi uslublar paydo bo'la boshlagan. Operatorlik mutaxassisligi hozirgi davrgacha o'ta mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Kamera operatori texnikadagi yangiliklar bilan birga o'z stilistikasi bilan rivojlandi. Operator o'z ijodiy maxsulini san'atning tamoyillariga tayangan xolda texnika orqali tomoshabinga yetkaza oladigan vositachidir. Avvallari oddiy statik kadrlari inson qalbiga yo'l topgan bo'lsa hozirda u ancha keng qamrovda ijod qila oladi. Zamon bilan hamnafas kamera operatorlarining say harakatlari tufayli operatorlik kasbi san'at darajasigacha yuksaltirishga muvaffaq bo'lindi. Albatta kinemotografiyada operatorlik rivojiga katta imkoniyat yaratadi, operatorlar o'z ustida ko'proq ishlashga kirishdi yangidan yangi operatorlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi, kamera operatori kino va tele-operatorlari yo'nalishiga ajraldi.

"O'zbekfilm" kinostudiyasining taniqli operatorlari. Malik Qayumov, A. Saidov, O. Tursunov, Xotam Fayziyev, P. Rasulov D. Salimov, T. Ro'ziyev, Sh. Junaydullayev, A.Ismailov Najmiddin G'ulomov, Sh. Mahmudov, T. Qayumov, E.A'zamov, D.Abdullayev, B.Nazarov, Hamidulla Hasanov, kabi



kinooperatorlarning xissasi katta. Yuqorida keltirilgan operatorlardek kinooperatorlik kasbining namoyondalaridan, ijodiy uslubiga ega o'zbek kinooperatorlik maktabi rivojlanishida o'z ijodiy ishlari bilan alohida o'rin egallagan

Xamidulla Xasanov hisoblanadi. Mazkur dissertatsiya hozirgi kirib kelayotgan yosh operatorlarining muammolar yechimini izlashda ustoz operator Hamidulla Hasanov ijodiy ishlari orqali ilmiy tahlil qilib, muayyan xulosalar yasash, muammolar yechimini izlash ishlariga turtki berib, o'z navbatida bular tanlagan mavzuning dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kino nima? Bu hissiyotlar hikoyasi, san'at g'oyasi bularning barchasini ko'rsatish va tomoshabinni majburlashdir, chunki oxir-oqibat istalgan badiiy effektini olish uchun har qanday operator bizning hayotimiz va dunyoqarashimizdagi asosiy elementlardan birini, hoh bu yorug'likdan foydalanadi. Turli yo'llar va turli maqsadlarda qo'llaniladi, lekin haqiqat shuki, bu kino tilining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, voqeani eng go'zal va ixcham tarzda bayon etishga, qahramonlar dramasini shunchalik his qilishga yordam beradiki. Tasvirning noyob vizual dunyosini yaratishi mumkin. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar tog'risida"gi qarorida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Shu asnoda kino san'ati hali nisbatan yosh bo'lishiga qaramasdan, jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi bo'lib qolganligiga ancha bo'ldi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kinoperator kino rejissor Xamidulla Xasanovda interyu
2. A.I.Ismoilov Kinooperatorlik mahorati darslik -2021
3. I.M.Meliqoziyev. O'zbek badiiy filmlarida kinooperatorlik mahorati MONOGRAFIYA – 2022.
4. I.M.Meliqoziyev. yorug'lik rang va kompozitsiya asoslari – 2020.

